

**TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILARGA RANG VA SHAKL  
UYG'UNLIGINI O'RGAТИSH ORQALI ESTETIK IDROKNI  
RIVOJLANTIRISH**

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy  
va amaliy fanlar fakulteti Tasviriy san'at  
va musiqa kafedrasи Tasviriy san'at va muhandislik  
grafikasi yo'nalishi 3-bosqich 302-guruh talabasi  
Yuldasheva Baxtiyorxon Jummayoy qizi*

**Annotatsiya:** Maqolada umum ta'lif maktablarida tasviriy san'at darslarining ahamiyati, rang va shakl uyg'unligini o'rnatishning estetik tarbiyatadagi o'rni hamda o'quvchilarda estetik idrokni rivojlantirish metodlari ilmiy tahlil qilinadi. Rang va shakl uyg'unligi o'quvchilarda nafaqat ijodiy qobiliyatni, balki badiiy tafakkurni ham shakllantirishda muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy san'at, rang, shakl, uyg'unlik, estetik idrok, ijodiy tafakkur, badiiy did.

**DEVELOPMENT OF AESTHETIC PERCEPTION THROUGH  
TEACHING COLOUR AND SHAPE HARMONY TO STUDENTS IN FINE  
ARTS LESSONS**

**Annotation:** The article scientifically analyzes the importance of fine arts lessons in general education schools, the role of teaching colour and shape harmony in aesthetic education, and methods for developing aesthetic perception in students. Colour and shape harmony is considered an important factor in the formation of not only creative abilities but also artistic thinking in students.

**Keywords:** Fine arts, colour, shape, harmony, aesthetic perception, creative thinking, artistic taste.

**АЗВИТИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПРИЯТИЯ ЧЕРЕЗ ОБУЧЕНИЕ  
УЧАЩИХСЯ ГАРМОНИИ ЦВЕТА И ФОРМЫ НА УРОКАХ  
ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА**

**Аннотация:** В статье научно анализируются значение уроков изобразительного искусства в общеобразовательных школах, роль обучения гармонии цвета и формы в эстетическом воспитании, а также методы развития эстетического восприятия учащихся. Гармония цвета и формы рассматривается

как важный фактор формирования не только творческих способностей, но и художественного мышления учащихся.

**Ключевые слова:** Изобразительное искусство, цвет, форма, гармония, эстетическое восприятие, творческое мышление, художественный вкус.

## KIRISH

Tasviriy san'at inson estetik dunyoqarashining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, umum ta'lim maktablarida o'tkaziladigan san'at darslari o'quvchilarning nafaqat ijodiy qobiliyatini, balki hayotni badiiy-estetik idrok etish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Estetik idrokning shakllanishida rang va shakl uyg'unligi alohida o'rin tutadi. Chunki rang va shakl insonning sezgi organlariga kuchli ta'sir etadi, unda emotsional kechinmalarni uyg'otadi, estetik zavq hosil qiladi. Shu bois tasviriy san'at ta'limida rang va shakl uyg'unligini o'rgatish jarayoni didaktik, tarbiyaviy va ijodiy jihatdan juda ahamiyatlidir.

Umum ta'lim maktablarida tasviriy san'at fanining asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarda estetik idrokni shakllantirish, ularni san'atni anglashga, badiiy ijod jarayonida o'z qobiliyatlarini namoyon etishga yo'naltirishdir. Inson estetik tarbiyasida rang va shaklning o'zaro uyg'unligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ranglar hissiy kechinmalarni uyg'otsa, shakllar mantiqiy idrokni mustahkamlaydi, ularning uyg'unligi esa estetik zavq va go'zallikni to'liq his etishga imkon yaratadi. Shu sababli tasviriy san'at darslarida rang va shakl uyg'unligini o'rgatish jarayoni o'quvchilarda nafaqat ijodiy ko'nikmalarni rivojlantiradi, balki ularning hayotni go'zallik orqali anglash qobiliyatini ham shakllantiradi. Rang va shakl san'atning asosiy ifoda vositalaridan hisoblanadi. Ranglar o'zaro uyg'unlashganda tasvirning emotsional kuchini oshiradi, shakl esa predmetning mazmunini aniqlaydi. Ularning uyg'unligi esa kompozitsiyaning yaxlitligini ta'minlaydi. Psixolog olimlar (L.S. Vygotskiy, R. Arnheim, A. Leontyev) tadqiqotlarida rang va shakl uyg'unligi inson estetik idrokiga bevosita ta'sir etishi isbotlangan. Ranglar hissiyotlarni uyg'otsa, shakllar tafakkur va idrokni shakllantiradi.

## METADALOGIYA

Rang va shakl uyg'unligi qadimdan san'atkorlar ijodida markaziy o'rin tutgan. Misol uchun, Sharq miniatyura san'atida shakl va rang uyg'unligi orqali obrazlarning badiiy jozibasi ochib berilgan, G'arb rassomchiligidagi esa ranglar kontrasti va shakllar nisbatlari orqali chuqur psixologik mazmun ifodalangan. Demak, rang va shakl uyg'unligi nafaqat texnik kategoriya, balki estetik tafakkurni shakllantiruvchi kuchli vositadir. Bugungi kunda maktab ta'limida ushbu masalaga alohida e'tibor qaratish zarur, chunki yosh avlodda estetik dunyoqarashning shakllanishi ularning kelgusida ijodiy faoliyatiga, ma'naviy dunyosiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarda estetik idrok quyidagi bosqichlarda shakllanadi:



1-Sezgi va kuzatuvchanlikni rivojlantirish – ranglar va shakllarni ajratish, ularning psixologik ta'sirini his qilish.

2-Amaliy mashqlar orqali ko'nikma hosil qilish – ranglarni uyg'unlashtirish, shakllarni to'g'ri joylashtirish, kompozitsion muvozanatni ta'minlash.

3-Ijodiy izlanish bosqichi – rang va shakl uyg'unligi asosida erkin kompozitsiyalar yaratish, mavzuli ishlarda estetik yaxlitlikni hosil qilish.

4-Estetik baholash bosqichi – yaratilgan asarlarni tahlil qilish, ularning badiiy qiymatini anglash, estetik me'yorlarni shakllantirish.

O'quvchilar rang va shakl uyg'unligini amaliy mashg'ulotlar orqali o'zlashtiradilar. Masalan, natura asosida oddiy predmetlarni turli ranglarda tasvirlash, geometrik shakllardan foydalangan holda kompozitsiyalar yaratish, mavzuli rasmlarda ranglarning muvozanatini topish ularning kuzatuvchanligini, estetik hislarini va ijodiy tasavvurini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ranglarning psixologik ta'siri ham o'quvchilarga izohli ravishda tushuntirilsa, ularning tasviriy faoliyatga bo'lgan qiziqishi yanada ortadi. Qizil rang harorat va jo'shqinlikni, ko'k rang sokinlikni, yashil rang esa tabiiy uyg'unlikni anglatishi kabi bilimlar bolalarda estetik sezgi rivojiga xizmat qiladi.

Rang va shakl uyg'unligini o'rgatishda quyidagi metodik usullar samarali hisoblanadi:

1. Nazariy va amaliy uyg'unlik – rang doirasi, rang kontrasti, shakllar nisbatini o'rgatish bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlarda tatbiq etish.
2. Natura asosida ishslash – o'quvchilarning kuzatuvchanligini oshirish uchun jonli predmetlar va manzaralarni rang va shakl uyg'unligida tasvirlash.
3. Ijodiy topshiriqlar – mavzu asosida rang-barang kompozitsiyalar yaratish, geometrik va organik shakllar uyg'unligini sinab ko'rish.
4. Integrativ yondashuv – rang va shakl uyg'unligini musiqa (ritm va ohang), adabiyot (she'riy obraz), matematika (geometrik nisbat) bilan bog'liq holda o'rgatish.
5. Axborot texnologiyalari – rang uyg'unligini elektron palitralar, grafik dasturlar yordamida ko'rsatish.

### **ADABIYOTLAR TAXLILI**

Zamonaviy pedagogika rang va shakl uyg'unligini o'rgatishda innovatsion metodlardan foydalanishni talab qiladi. Multimedia taqdimotlari yordamida mashhur rassomlarning asarlaridagi rang va shakl uyg'unligini tahlil qilish, interfaol topshiriqlar orqali o'quvchilarni amaliy jarayonga jalb etish, grafik dasturlardan foydalangan holda rang uyg'unligini raqamli muhitda sinab ko'rish bugungi o'quvchilar uchun samarali usullardan hisoblanadi. Shuningdek, fanlararo integratsiya ham bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Masalan, matematika fanida o'tiladigan proporsiya va nisbat tushunchalarini san'at darsida qo'llash, adabiyotdagisi obrazlarni rang va shakl orqali

ifodalash, musiqa darsidagi ritmik uyg'unlikni kompozitsiya yaratishda tatbiq etish o'quvchilarning estetik dunyoqarashini yanada kengaytiradi.

Shakllar uyg'unligini o'rgatishda esa geometrik shakllarning mutanosibligi, nisbat va proporsiya tushunchalarini amaliy misollar orqali ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Masalan, doira, kvadrat va uchburchaklarning turli ranglarda uyg'unlashtirilishi, ular orqali turli kompozitsiyalar tuzilishi nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki tasavvur va tafakkurni ham rivojlantiradi. Bu jarayonlarda o'quvchilar mustaqil izlanishga, ijodiy yondashuvga va go'zallikni ongli idrok etishga o'rganadilar.

## NATIJALAR

Estetik idrokni shakllantirish jarayoni faqat dars bilan cheklanib qolmasligi lozim. Ko'rgazmalarga tashrif buyurish, san'at asarlarini tahlil qilish, muzeylarda o'quvchilar bilan ijodiy suhbatlar o'tkazish, ularning ishlarini maktab ko'rgazmalarida namoyish qilish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki o'quvchilar nafaqat ijodiy faoliyat bilan shug'ullanadilar, balki badiiy qadriyatlarni idrok etishga, ularni baholashga o'rganadilar. Bu esa estetik idrokning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'quvchilarning estetik idrokini rivojlantirish ularning ma'naviy kamolotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Rang va shakl uyg'unligini o'rganish orqali ular hayotdagi go'zallikni ko'ra olish, san'at asarlarini qadrlash, ijodiy tafakkur yuritish, milliy va jahon madaniyatini anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu jihatdan tasviriy san'at darslari yosh avlodni nafaqat ijodkor, balki estetik didli, ma'naviy boy shaxs sifatida tarbiyalashning eng samarali vositalaridan biridir.

## XULOSA

Umum ta'lim maktablarida tasviriy san'at darslari orqali o'quvchilarga rang va shakl uyg'unligini o'rgatish estetik idrokni rivojlantirishning eng samarali yo'llaridan biridir. Rang va shakl uyg'unligi o'quvchilarni nafaqat chiroyli tasvir yaratishga, balki hayotni estetik zavq bilan idrok etishga, badiiy tafakkurini kengaytirishga ham undaydi. Mazkur jarayonda o'qituvchining metodik mahorati, ijodiy yondashuvi va innovatsion texnologiyalarni qo'llashi muhim ahamiyat kasb etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zokirov B. Rangtasvir asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
2. Mirzaahmedov B. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
3. Gulomova N. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. – Toshkent: Fan, 2019.
4. Arnheim R. Art and Visual Perception: A Psychology of the Creative Eye. – Berkeley: University of California Press, 2004.
5. Eisner E. The Arts and the Creation of Mind. – New Haven: Yale University Press, 2002.
6. Xudoyberdiyeva M. San'at ta'limida innovatsion metodlar. – Samarqand: Zarafshon, 2021.